

**“Olmaliq KMK” AJning  
2024 yil yakunlari bo‘yicha  
TAHLILY MA’LUMOTNOMASI**

“Olmaliq KMK” AJ boshqaruv raisi – Xursanov Abdulla Xalmuradovich.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo‘nalishlarini bajarish davomida “Olmaliq KMK” AJ jamoasi 2024 yil yanvar-dekabr yakunlari bo‘yicha quyidagi tovar mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga erishdi:

- amaldagi narxlarda – 116,1%.

Mis ishlab chiqarishni 100 foizga, shu jumladan o‘z xom ashyosidan 107,4 foizga, metalli rux 71,2 foizga, shu jumladan o‘z xom ashyosidan 117,1 foizga, sulfat kislotasi 100,0 %, affinali oltin 100,5% va affinali kumush 100,0 foizga bajarildi.

2024 yil yakunlari bo‘yicha 610,9 mln.doll. (111,1 %) miqdorida mahsulotlar eksportga sotildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-92-son qaroriga muvofiq 2024 yilga “Olmaliq KMK” AJ ishlab chiqarish quvvatini oshirish va xom ashyoni qayta ishlash uchun 2207,6 mln. dollarlik investitsiya o‘zlashtirilishni mo‘ljallangan.

2024 yil yakunlari bo‘yicha 1943,9 mln. dollar (103,1%) miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi, shu jumladan:

korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan – 147,8 mln. doll.;

tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari – 44,9 mln. doll.;

to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy kreditlar – 1751,2 mln. doll.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2022 yil 24 yanvardagi 99-sonli “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq va “Olmaliq KMK” AJ boshqaruv raisining 2022-yil 31 yanvardagi 94-sonli buyrug‘iga asosan “Olmaliq KMK” AJ 2024 yilda mahalliyashtirish dasturi bo‘yicha 1502,3 mlrd. so‘mlik 268 ta loyihani amalga oshirishi ko‘zda tutilgan.

2024 yil yakunlari bo‘yicha 268 ta loyiha asosida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ko‘rsatkichi 1567,0 mlrd. so‘mni yoki prognozga nisbatan 103,0 foizni tashkil etdi.

2024 yilga mo‘ljallangan ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ishlab chiqarish xarajatlarini 1329,5 mlrd. so‘mga yoki 10,03 foizga qisqartirish ko‘zda tutilgan.

2024 yil yakunlari bo‘yicha ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish chora-tadbirlari kompleksini amalga oshirishdan kutilayotgan natija 1670,5 mlrd. so‘mni yoki 12,1 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Kombinatda boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy ahvolni mustahkamlash, debitorlik va kreditorlik to'lovlarini kamayishini ta'minlash tadbirlari amalga oshirilib kelinadi.

2025 yil 1 yanvar oyi xolatiga kombinatning kutilayotgan debitorlik qarzlari 3945,8 mlrd. so'mni, kreditorlik qarzlari 5170,3 mlrd. so'mni tashkil etishi kutilmoqda.

Byudjetga yoki ish haqiga nisbatan qarzdorlik mavjud emas.

Ishchi-hodimlarni texnik tayyorlash dasturiga muvofiq kadrlarning malakasini oshirish uchun 7376 nafar, shu jumladan, ishlab chiqarishdan tashqari 1293 nafar, qayta tayyorlash va ikkinchi mutaxassislikni o'zlashtirish bo'yicha 2234 nafar, rahbar va mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha 2489 nafar, shu jumladan, ishlab chiqarishdan tashqari 745 nafar kishi o'qitildi.

“Olmaliq KMK” AJ O'zbekiston Respublikasidagi 10 ta oliy o'quv yurti va Rossiya Federatsiyasining MTTU “MISiS” universiteti va filiallari bilan oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni olib boradi.

Hozirgi kunda umumiy talabalar soni 80 nafarni tashkil etmoqda, bundan 7 ta talaba OTMlarning kunduzgi va 73 ta talaba sirtqi va kechki bo'limlarida ta'lim olmoqda.

Yuqori turuvchi tashkilotlarining topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish, ijro intizomini nazorat qilish tizimini takomillashtirish maqsadida “Olmaliq KMK” AJ Ijro apparatida yuqori tashkilot topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish xizmati tashkil etilgan va ijro intizomi holatini tizimli va tanqidiy tahlil qilish tartibi belgilandi.

Yil davomida O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xujjatlari va hukumat qarorlarining joylardagi ijrosini o'rganish ishlari amalga oshirish mobaynida hisobot tizimini joriy etish va belgilangan muddatlarda hujjatlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Kombinatning ish rejasiga asosan analitik hisobotlar tayyorlanib bayonnomalar tuzib borilmoqda.

Qarorlari ijrosini tanqidiy tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

2024 yil yakunlari bo'yicha jami 735 ta hujjat kiritilgan, shu jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari 149 ta – (7 ta farmon, 13 ta qaror, 11 ta bayon, 118 ta topshiriq);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlari 585 ta, (31 qaror, 19 ta farmoyish, 91 ta bayon) Bosh vazir, uning o'rinbosarlari va maslahatchilari topshiriqlari – 284 ta, kotibiyat topshiriqlari – 160 ta).